

**“PEDAGOGIK MAHORATNI RIVOJLANTIRISHDA REFLEKSIYA VA O‘Z-O‘ZINI TAHLIL QILISH USULLARINING SAMARADORLIGI”***Saidova Fotima Mamarejap qizi**Salomova Mahliyo komil qizi**Termiz davlat pedagogika instituti talabarlari*

**Anotatsiya.** Mazkur maqolada pedagogik mahoratni rivojlantirishda refleksiya va o‘z-o‘zini tahlil qilish usullarining samaradorligi ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilingan. O‘qituvchilarning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishda o‘z faoliyatini tanqidiy baholash, mustaqil xulosa chiqarish, dars jarayonidagi yutuq va kamchiliklarni tahlil qilishning ahamiyati ochib berilgan. Shuningdek, refleksiya jarayonining o‘quvchi bilan samarali muloqotni yo‘lga qo‘yish, zamonaviy ta‘lim texnologiyalarini qo‘llash hamda shaxsiy va kasbiy o‘shirishga ta‘sir amaliy misollar asosida asoslab berilgan.

**KIRISH.** Bugungi globallashtirish va raqamli transformatsiya sharoitida ta‘lim tizimini modernizatsiya qilish, o‘qituvchilarning kasbiy-pedagogik mahoratini yuksaltirish va zamonaviy kompetensiyalarni shakllantirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Chunki pedagogning nafaqat bilim beruvchi, balki shaxsni tarbiyalovchi, jamiyatda faol fuqarolik pozitsiyasiga ega barkamol insonni shakllantiruvchi sifatidagi o‘rni tobora ortib bormoqda. Bu jarayonda refleksiya va o‘z-o‘zini tahlil qilish usullari o‘qituvchi faoliyatini muntazam rivojlantirish, ta‘lim sifatini oshirish va pedagogik jarayonni samarali tashkil etishda muhim vosita sifatida maydonga chiqmoqda. O‘zbekiston Respublikasida so‘nggi yillarda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar, xususan, ta‘lim sohasini rivojlantirishga oid qator farmon va qarorlar ushbu masalaning naqadar dolzarb ekanini tasdiqlaydi. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020-yil 23-sentyabrdagi “Ta‘lim to‘g‘risida”gi Qonunning yangi tahririni tasdiqlashga oid tashabbusi ta‘lim tizimida innovatsion yondashuvlarni keng joriy etish, o‘qituvchilarning malakasini oshirish hamda kasbiy faoliyatini muntazam ravishda tahlil qilish mexanizmlarini yaratishga huquqiy asos bo‘ldi. Mazkur qonunda ta‘limning zamonaviy shakllari, pedagoglarning metodik salohiyatini yuksaltirish, shaxsiy va kasbiy rivojlanishga xizmat qiluvchi refleksiya amaliyotlarini joriy etish masalalari alohida qayd etilgan. Shuningdek, 2022-yil 28-yanvarda qabul qilingan PF-60-sonli Farmon – “2022–2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi”da ta‘lim sifatini oshirish, ustozshogird tizimini rivojlantirish, pedagoglarning kasbiy kompetensiyalarini



takomillashtirish va o‘z-o‘zini rivojlantirish mexanizmlarini yaratish ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilangan. Ushbu hujjatda ayniqsa reflektiv yondashuv orqali o‘qituvchilarning o‘z faoliyatini tahlil qilishini rag‘batlantirish, dars jarayonidagi kamchilik va yutuqlarni baholash orqali kasbiy o‘shishni ta‘minlash muhim jihatlardan biri sifatida ko‘rsatib o‘tilgan. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PQ–5847-son qarori bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasida xalq ta‘limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi”da ham ta‘lim sifati ko‘rsatkichlarini xalqaro reytinglar darajasiga olib chiqish, o‘qituvchilarning kasbiy rivojlanishi uchun yangi pedagogik texnologiyalarni, jumladan refleksiya va o‘z-o‘zini tahlil qilish usullarini keng joriy etish zarurligi alohida ta‘kidlangan. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 19-maydagi “O‘zbekiston Respublikasi ta‘lim tizimini raqamlashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorida ham o‘qituvchilarning raqamli savodxonligini oshirish, dars jarayonini tahliliy yondashuv asosida takomillashtirish hamda zamonaviy texnologiyalardan foydalangan holda o‘z faoliyatini tahlil qilish ko‘nikmalarini shakllantirishga qaratilgan vazifalar belgilangan. Xususan, davlat rahbarining “Yoshlarni ma‘naviy-axloqiy va intellektual rivojlantirish, ularning kasbiy tayyorgarligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmonida ham o‘qituvchilarning reflektiv faoliyatini rag‘batlantirish, ularni mustaqil izlanish va o‘zini tahlil qilish jarayoniga jalb etish orqali ta‘lim sifati oshirish zarurligi qayd etilgan. Bu esa pedagogik mahoratni rivojlantirishda refleksiya va o‘z-o‘zini tahlil qilishning nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham dolzarb ekanini ko‘rsatadi[10]. Ta‘lim sifati oshirish, xalqaro reytinglarda O‘zbekistonning o‘rnini mustahkamlash, pedagoglarning kasbiy rivojlanishini ta‘minlash, shuningdek, o‘quvchi va talabalarni global bilim maydoniga tayyorlashda o‘qituvchilarning refleksiya va o‘z-o‘zini tahlil qilish usullarini samarali qo‘llashi muhim omil hisoblanadi. Shunday ekan, ushbu mavzuni ilmiy-nazariy hamda amaliy jihatdan chuqur tadqiq qilish bugungi ta‘lim islohotlari kontekstida alohida ahamiyat kasb etadi[9].

Pedagogik mahoratni rivojlantirish jarayonida refleksiya va o‘z-o‘zini tahlil qilish usullari zamonaviy ta‘lim tizimining eng muhim metodologik asoslaridan biri sifatida qaralmoqda. Refleksiya o‘qituvchiga o‘z faoliyatini tanqidiy baholash, dars jarayonida qo‘llagan uslub va texnologiyalarining samaradorligini aniqlash, yuzaga kelgan kamchiliklarni o‘z vaqtida ko‘rish hamda kelajakda ularni bartaraf etish imkonini beradi. Bu jarayon faqatgina o‘qituvchi shaxsiy rivoji uchun emas, balki ta‘lim sifati oshirish, o‘quvchilar bilan samarali muloqotni yo‘lga qo‘yish hamda innovatsion yondashuvlarni qo‘llashda ham beqiyos ahamiyatga ega. Shuningdek, o‘z-o‘zini tahlil



## Learning and Sustainable Innovation

qilish orqali pedagog o'zining kasbiy kompetensiyalarini real baholash, qaysi sohalarda bilim va ko'nikmalarini mustahkamlashi zarurligini aniqlash imkoniga ega bo'ladi. Bu esa o'qituvchini doimiy izlanishga, yangiliklarni o'zlashtirishga va ijodiy faoliyatga undaydi. Refleksiya jarayonida o'qituvchi nafaqat o'zining shaxsiy faoliyatini, balki o'quvchilarning dars jarayonidagi ishtirokini, ularning bilimlarni qanchalik ongli o'zlashtirganini, motivatsiya darajasi va faoliyat natijalarini ham tahlil qiladi. Masalan, matematika fani o'qituvchisi dars yakunida o'quvchilarning mustaqil ishlari natijalarini ko'rib chiqib, dars metodikasidagi kuchli va zaif tomonlarni aniqlaydi hamda kelgusi mashg'ulotlarni takomillashtirish bo'yicha aniq xulosalarga keladi. Yoki ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi o'quvchilarning yozma ishlari, erkin fikrlash darajasini tahlil qilib, qaysi metodik usullar samaraliroq natija berganini kuzatadi. Shu asosda o'z pedagogik faoliyatiga zarur o'zgarishlarni kiritadi. Refleksiv faoliyatning samaradorligi o'qituvchining shaxsiy xususiyatlari bilan ham chambarchas bog'liq. Ya'ni, o'z faoliyatiga tanqidiy yondasha oladigan, yangiliklarni qabul qilishga ochiq, o'quvchilarning ehtiyojlarini inobatga oladigan pedagog o'zining kasbiy mahoratini tezroq va samaraliroq rivojlantira oladi. Masalan, ayrim o'qituvchilar o'z darsini videoyozuv orqali qayd etib, keyinchalik uni tahlil qiladi. Bu orqali ular nutq madaniyati, dars o'tkazish uslubi, o'quvchilar bilan muloqot qilishdagi xatoliklarini ko'rib chiqish va tuzatish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Bu kabi tajriba rivojlangan davlatlarning ta'lim tizimida keng qo'llanilib, o'qituvchilarni muntazam ravishda o'z faoliyatini tahlil qilishga undaydi[11].

Refleksiya va o'z-o'zini tahlil qilish usullarining yana bir muhim jihati – ular o'qituvchining ijodiy tafakkurini, tanqidiy fikrlash qobiliyatini va muammoli vaziyatlarni hal qilish ko'nikmasini rivojlantiradi. O'qituvchi o'z faoliyatini baholar ekan, faqatgina mavjud kamchiliklarni aniqlabgina qolmay, balki ularni bartaraf etishning innovatsion yo'llarini ham izlaydi. Masalan, axborot texnologiyalaridan samarali foydalanish, interaktiv metodlarni qo'llash, differensial ta'limni tashkil etish kabi yondashuvlar refleksiya jarayonida shakllangan xulosalar asosida tanlanadi. Bu esa ta'lim jarayonining sifat va samaradorligini oshirishga xizmat qiladi[8].

Amaliy tajribalar shuni ko'rsatadiki, muntazam ravishda o'z faoliyatini tahlil qilib boradigan o'qituvchilar ta'lim jarayonida yuqori natijalarga erishadi. Ular o'quvchilarning ehtiyojlarini to'g'ri aniqlash, dars metodikasini o'z vaqtida takomillashtirish, individual yondashuvni qo'llash va natijalarni obyektiv baholash imkoniga ega bo'ladilar. Misol sifatida, Toshkent davlat pedagogika universitetida o'tkazilgan tajribaviy tadqiqotlarda refleksiya asosida faoliyat yuritgan pedagoglarning dars samaradorligi 20-25 foizga oshgani aniqlangan. Bu shuni ko'rsatadiki, refleksiya



## Learning and Sustainable Innovation

nafaqat nazariy jihatdan, balki amaliy jihatdan ham pedagogik mahoratni rivojlantirishning eng samarali vositalaridan biridir. Shuningdek, refleksiya o'qituvchining shaxsiy va kasbiy rivojlanishidagi motivatsion omil sifatida ham katta ahamiyatga ega. O'z faoliyatini tahlil qilish orqali pedagog o'zining kuchli tomonlarini ko'radi, o'ziga bo'lgan ishonchini mustahkamlaydi, kasbiy o'sishga bo'lgan intilishini oshiradi. Shu bilan birga, aniqlangan kamchiliklar uni yangi bilimlarni egallashga, yangicha usullarni o'rganishga va o'z ustida ishlashga undaydi. Bunday jarayon pedagogning o'zini-o'zi rivojlantirish ehtiyojini kuchaytiradi va uni professional shaxs sifatida shakllantiradi. Umuman olganda, refleksiya va o'z-o'zini tahlil qilish usullarining samaradorligi shundaki, ular o'qituvchiga nafaqat kasbiy faoliyatini baholash va takomillashtirish imkonini beradi, balki o'zining pedagogik mahoratini yangi bosqichga ko'tarishga, zamonaviy ta'lim texnologiyalarini o'zlashtirishga, ijodiy va tanqidiy tafakkurni rivojlantirishga, shuningdek, o'quvchilar bilan samarali pedagogik muloqot o'rnatishga xizmat qiladi. Shu sababli, bugungi ta'lim tizimida ushbu yondashuvlarni keng joriy etish va ularni pedagoglarning kasbiy faoliyatining ajralmas qismiga aylantirish muhim vazifa sifatida namoyon bo'lmoqda[7].

Pedagogik mahoratni rivojlantirishda refleksiya va o'z-o'zini tahlil qilish usullarining samaradorligi haqida gapirganda, zamonaviy ta'lim tizimida o'qituvchidan nafaqat bilim beruvchi, balki doimiy ravishda o'z faoliyatini tanqidiy tahlil qila oladigan, o'z ustida ishlashga intiladigan va zamon talablariga moslashadigan shaxs sifatida faoliyat yuritishi talab etiladi. Refleksiya pedagogning kasbiy faoliyatini qayta ko'rib chiqish, o'zining kuchli va zaif tomonlarini aniqlash, o'quv jarayonida yo'l qo'yilgan xatolarni bartaraf etish va yangicha yondashuvlarni izlash jarayonidir. Ayniqsa, XXI asrda ta'lim sifati davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylanganligi sababli o'qituvchilar uchun refleksiya nafaqat shaxsiy rivojlanish vositasi, balki ta'lim tizimini modernizatsiya qilishning ham muhim shartidir. Amaliyot shuni ko'rsatmoqdaki, reflektiv faoliyatni rivojlantirgan pedagoglar dars jarayonida interaktiv metodlardan ko'proq foydalanadi, o'quvchilarning individual xususiyatlarini chuqurroq o'rganadi va ular bilan samarali muloqot o'rnatadi[12].

Misol tariqasida, ayrim umumta'lim maktablarida joriy qilingan "darsdan keyingi reflektiv suhbat" amaliyoti o'qituvchiga o'z darsini tahlil qilish, o'quvchilarning fikrlarini eshitish va keyingi mashg'ulotlarda yondashuvni qayta ko'rib chiqish imkonini beradi. Bu esa, o'z navbatida, ta'lim sifatining oshishiga, o'quvchilarda tanqidiy fikrlash, erkin mulohaza yuritish va o'z-o'zini baholash ko'nikmalarining shakllanishiga olib kelmoqda. O'z-o'zini tahlil qilish usullari o'qituvchiga o'z faoliyatini xolisona baholash, maqsad va natijalarni solishtirish, o'zida mavjud bo'lgan



kamchiliklarni aniqlash hamda ularni bartaraf etish yo‘llarini ishlab chiqishda yordam beradi. Masalan, o‘qituvchi har bir o‘quv yilining yakunida o‘zining yutuq va muvaffaqiyatsizliklarini yozma tarzda qayd etib borishi, o‘z dars ishlanmalarini tahlil qilishi va natijalarni boshqa tajribali pedagoglar bilan muhokama qilishi samarali usullardan biridir. Bundan tashqari, zamonaviy ta’limda video-refleksiya usuli ham keng qo‘llanilmoqda. Bu usulda o‘qituvchi o‘z darsini videoga yozib olib, uni qayta ko‘rib chiqadi, dars jarayonida yo‘l qo‘ygan xatolarini yoki imkoniyatlarini aniqroq ko‘radi va o‘z faoliyatini yanada takomillashtirish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Ilmiy tadqiqotlarda ham refleksiya va o‘z-o‘zini tahlil qilish pedagogning kasbiy mahoratini oshirishda muhim o‘rin tutishi ta’kidlanadi. Chunki ular o‘qituvchining faqat tashqi kuzatuvchiga emas, balki ichki o‘zgarishlarga ham tayyor bo‘lishini talab etadi. Masalan, xalqaro tajribada ko‘plab ilg‘or ta’lim tizimlari (Finlyandiya, Singapur, Janubiy Koreya) o‘qituvchilarning reflektiv amaliyotini doimiy ravishda qo‘llab-quvvatlab kelmoqda. Ularning dasturlarida pedagoglar muntazam ravishda “professional learning community” (kasbiy o‘quv jamoalari) orqali o‘zaro tajriba almashadi, refleksiya jarayonida o‘z darslarini tahlil qiladi va shu orqali bir-biridan o‘rganish imkoniyatiga ega bo‘ladi[6].

O‘zbekistonda ham bu borada muhim qadamlar qo‘yilmoqda. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ta’lim-tarbiyani modernizatsiya qilishga qaratilgan qaror va farmonlarida o‘qituvchilarning kasbiy kompetensiyalarini doimiy ravishda rivojlantirish, zamonaviy metod va texnologiyalarni egallash, shuningdek, o‘z ustida ishlash madaniyatini shakllantirish masalalari alohida o‘rin olgan. Bu esa, o‘z navbatida, refleksiya va o‘z-o‘zini tahlil qilish jarayonlarini ta’lim siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida ko‘rishga asos bo‘ladi.

Refleksiya va o‘z-o‘zini tahlil qilish o‘qituvchining kasbiy mahoratini rivojlantirishda eng samarali usullardan biri bo‘lib, u nafaqat pedagogning individual sifatlarini mustahkamlaydi, balki butun ta’lim tizimining sifat ko‘rsatkichlarini ham yuksaltiradi. Bu jarayonni tizimli ravishda yo‘lga qo‘yish orqali o‘qituvchilar ijodkor, tanqidiy fikrlovchi, doimiy izlanishda bo‘luvchi mutaxassisga aylanishi mumkin. Shu bois, kelajakda pedagog kadrlarni tayyorlash jarayonida refleksiya va o‘z-o‘zini tahlil qilish usullarini alohida metodik yondashuv sifatida joriy etish ta’lim sifatini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi[13].

## XULOSA

Pedagogik mahoratni rivojlantirishda refleksiya va o‘z-o‘zini tahlil qilish usullarining samaradorligi bugungi kunda ta’lim tizimi rivojining asosiy omillaridan biri sifatida



qaralmoqda. Zero, refleksiya jarayoni o'qituvchining o'z faoliyatini tanqidiy baholashiga, kuchli va zaif tomonlarini aniqlashiga, yangicha yondashuvlarni tatbiq etishiga keng imkoniyat yaratadi. O'z-o'zini tahlil qilish esa pedagogning doimiy o'zgarishlarga tayyor bo'lishini, shaxsiy va kasbiy kamchiliklarni aniqlab ularni bartaraf etishni ta'minlaydi. Amaliy tajribalar ko'rsatadiki, reflektiv faoliyatni tizimli qo'llagan pedagoglarda dars sifati oshadi, o'quvchilarda esa tanqidiy fikrlash, ijodiy yondashuv va erkin mulohaza yuritish ko'nikmalari shakllanadi. Shu bois, zamonaviy ta'lim siyosatida o'qituvchining kasbiy kompetensiyasini oshirishning muhim vositasi sifatida refleksiya va o'z-o'zini tahlil qilishni yanada keng joriy etish zarur. Bu yondashuv nafaqat individual darajadagi pedagogning rivojlanishini, balki butun ta'lim tizimining sifat ko'rsatkichlarini yuksaltirishga xizmat qiladi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. Mirziyoyev Sh.M. "Yangi O'zbekiston strategiyasi". – Toshkent: O'zbekiston, 2021. – 464 b.
2. Mirziyoyev Sh.M. "Ta'lim va tarbiya – millat kelajagi garovi" nutqi. – Toshkent: Prezident matbuot xizmati, 2020.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3907-son qarori, 2018-yil 6-fevral.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ilm-ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili" munosabati bilan qabul qilingan PF-5953-son Farmoni, 2020-yil 28-yanvar.
5. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Umumiy o'rta va o'rta maxsus, professional ta'lim tizimida zamonaviy o'qituvchilarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini takomillashtirish to'g'risida"gi qarori, 2021-yil.
6. Mohigul Shavkatovna Xolova, & Yakub Saydulloyevich Ochilov (2021). PEDAGOGICAL CONDITIONS FOR THE DEVELOPMENT OF HEALTHY THINKING IN STUDENTS. *Academic research in educational sciences*, 2 (6), 54-57. doi: 10.24411/2181-1385-2021-01083
7. Saydulloyevich, O. Y., & Kizi, J. N. Z. (2022). Methods Of Developing Labor Education At School And In The Family. *Web of Scientist: International Scientific Research Journal*, 3(3), 57-60.
8. Saydulloyevich, Y., & Kizi, N. (2022). Analysis of pedagogical problems of gender differences in resolving conflict situations. *International Scientific Research Journal*, 3(3), 154-157.



9. Saydulloyevich, O. Y., & Raxmonovich, I. R. Factors Of Orientation Of Students To The Teaching Profession. *JournalNX*, 317-319.
10. Saidulloyevich, Y. O. (2022). Comments and explanations on the works of the great mutaffakir imam ghazali. *Emergent: Journal of Educational Discoveries and Lifelong Learning (EJEDL)*, 3(12), 241-244.
11. Saydulloyevich, Y. O., & Abdullaevna, M. M. (2022). Improvement of methodology of use of national ananas in teaching pedagogical sciences in the system of professional education.
12. Saydulloyevich, O. Y. (2022). The educational and moral significance of the spiritual heritage of Imam ghazali. *European Scholar Journal*, 3(6), 153-156.
13. Saydulloyevich, O. Y. (2023). Samples of the Wisdom of Imam Abu Hamid Ghazali Quoted in the Great Works. *World Bulletin of Social Sciences*, 25, 18-21.